

TARJIMA JARAYONIDA GRAMMATIK TRANSFORMATSIYANING O'RNI

Achilov Oybek Rustamovich

Toshkent Davlat Transport universiteti Professor o'qituvchisi

Todjidinova Umida Urinboy qizi

Toshkent Davlat Transport universiteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada tarjima jarayonidagi grammatik transformatsiyalarning o'rni haqida so'z boradi. Jumladan tarjima jarayonida grammatikaning o'rni muhim ekanligi, ma'lum bir tildan boshqa bir tilga tarjima qilingandan grammatik vositalar bir tildan ikkinchi tilga qanday yo'llar bilan amalga oshirilishi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar. grammatik transformatsiya, o'rin almashish, o'zgartirish, qo'shimcha qo'shish, tushurib qoldirish, sintaktik bog'lanish.

Kirish. Tarjima ayni paytda ham jarayon, ham faoliyat mahsuli hisoblanadi. Bunday faoliyat mahsuli sifatida bir tildan (asliyatdan) ikkinchi tilga tarjima qilingan matn nazarda tutiladi. Barcha talablarga javob beradigan tarjima sirasiga odatda 90 foizdan ortiq ma'noni saqlab qolgan matnlar kiradi. Tarjimada qo'llangan har bir so'z ikki jihatga egaligini e'tiborga olish zarur. Birinchisi ifoda plani, ikkinchisi esa ma'no plani. Tarjimada ifoda plani o'zgaradi, ma'no plani esa o'zgarishsiz qoladi [1,2,3,4,5,6].

Tarjima jarayonida ikkita til ishtirok etadi. Birinchisi asliyat tili va ikkinchisi tarjima tili. Masalan, ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilish haqida gap borganda ingliz tili asliyat tili hisoblanib, u "manba tili", hamda tarjima qilinadigan til o'zbek tili bo'lib, u "tarjima tili" deb ataladi. Tarjima qilish muammolaridan biri butun matnning ma'nosi shuningdek unsurlari ma'nosining yig'indisi bilan cheklanmasligidir. Matnda berilgan ma'no so'zlarning denotativ, konnotativ, stilistik, gaplarning sintaktik, gaplardan kattaroq birliklarining sintaktik ma'nolari, so'z va so'z birikmalarining supersegment hamda leksik-semantik ma'nolari o'rtasidagi bevosita aloqalarga asoslanadi. Har bir til leksik-grammatik maydonining maxsus strukturasi bilan ega bo'ladi. Shuning uchun tarjimon har ikkala til grammatikasini chuqur o'rganishi, grammatik transformatsiyaga alohida e'tibor berishi zarur.

Grammatik transformatsiyalar turli xil grammatik va leksik ko'rinishlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Ba'zi hollarda ular bir-biriga juda yaqin

bog'liq va leksik-grammatik xarakterga ega boladi. Tarjima qilishda grammatik transformatsiyadan keng foydalanishning sababi rus yoki o'zbek tilidagi gap ingliz tilining grammatik tuzilishi bilan mos kelmasligida deb izohlanadi: gapda so'z tartibi gaplarning joylashuv tartibidagi farqi bosh gap va ergash gap tartibidagi farqdir. Tarjimada biror bir so'z turkumi boshqa bir so'z turkumi bilan o'zgartirilishi mumkin. [7,8,9,10,11,12] Bu to'liq yoki qisman transformatsiyalarga bog'liqdir. Tarjima qilishda sifat, ot, fe'l va ravish bilan almashinishi mumkin. Amerika xayotidan: White schools - schools for white - oq tanlilar uchun maktablar; white churches - churches for white. Tarjima qilishda sifatlar ko'p hollarda ravishlar bilan o'zgartiriladi. Bu grammatik transformatsiyaning badiiy asar va publitsistika (ijtimoiy-siyosiy masalalarga oid adabiyot)da epitet (sifatlash) xodisaning mavjudligiga bog'liqdir. Misol uchun: Lord Nesby stretched a careless hand. - Лорд Несби небрежно протянул руку. - Lord Nesbi istar-istamay qo'lini cho'zdi.

Ba'zan, ingliz tilidagi ravish so'z turkumi boshqa bir so'z turkumi bilan o'zgarishi sodir bo'ladi. Misol uchun:

The accusation has been disproved editorially. - Обвинение было опровергнуто в передовой статье. — Aybdorlik gazeta maqolasida oqlandi.

Ingliz tilida gapda so'z tartibida dastlab bosh bo'laklar: ega va kesim, so'ngra esa 2-darajali bo'laklari keladi. Rus tilining akademik (oliy) grammatikasida gapda so'z tartibi quyidagicha ko'rsatilgan: hol, kesim, ega; ingliz tilida buning aksi qabul qilingan. Misol uchun: Yesterday's deal was considered in court. Xabarning boshi gapning oxirida bo'lishi lozim. Rus tilidagi gapda so'z tartibi turlicha bo'lishi mumkin [13-19].

Deal was considered in court yesterday. Berilgan gapning markazidagi "deal" (gapning egasi) gapning boshida bo'lishi lozim.

Ba'zan, rus tiliga tarjima qilishda gapdagi so'z tartibi yakka tartibda va murakkab qo'shma gaplardagi ergash gapning o'rin almashish hodisasi sodir bo'ladi, ayniqsa doimiy bo'lingan mazmuni ko'rsatish muhim bo'lganda. Misol uchun: В работе этой выставки примут участие фирмы, выпускающие электронное оборудование, многие из которых хорошо известны на мировом рынке.

Bu gapni ingliz tiliga tarjima qilishda ingliz tilining qoidalariga ko'ra turli xil o'rin almashtirishdan foydalaniladi va gapni 2ta sodda gapga ajratsa ham bo'ladi. Gapdagi so'zlar bir-biri bilan sintaktik bog'lanish orqali bog'langan. Ular 4ta: predikativ (ega va kesim o'rtasida); to'ldiruvchi (kesim va to'ldiruvchi o'rtasida); aniqlovchi vazifasida keladigan (aniqlanmish va aniqlovchi o'rtasida); va hol vazifasini bajaradigan (hol va u ergashgan so'z

o'rtasida) so'zlar guruhi turli xil sintaktik bog'lanishlar orqali birikadi va u so'z birikmasi deb ataladi. So'z birikmasi qat'iy jumlar yoki ixtiyoriy so'zlardari tuzilishi mumkin. Dastlab ma'lum birikmani tarjima qilib olib so'ngra nutqning shaklini qo'shimcha (kelishik)larga moslab yangi bir birikmani hosil qilish lozim. So'zlarning birikish qoidasi turli xil tillarda turlichadir. Bunga har bir til dunyodagi narsa va hodisalarning o'zaro aloqasini turli xil usullarda tasvirlaydi deb izoh beriladi. Shuning uchun turg'un(erkin) birikmalarni tarjima qilish mushkul bo'lishi mumkin.

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki tilning grammatik tuzilishi til sistemasining muhim bo'lagidir. Grammatik tuzilishning elementlari quyidagilar: affikslar, turlanish shakllari va yasalishi, sintaktik birikish, gapda so'z tartibi. Ular grammatik yoki shakliy jihatiga ko'ra leksik ma'nolari farq qilish uchun xizmat qiladi. Tarjima jarayonida shu kabi ma'noni bayon qilish tarjima ekvivalentlarining umumiy muammosi kabi muhim muammodir. Turli tillarning grammatik shakllari ularning ma'no va vazifasini ifodalashda bir-biriga kamdan-kam holatlarda to'g'ri keladi. Odatda bu yerda qisman ekvivalentlik bo'lib, u grammatik ma'nolarni grammatik shakllarda ifodalashdir, ko'rinib turibdiki, ikki tilning o'xshash jhati faqatgina ularning ma'nosi o'xshash bo'lishida, boshqa jihatlari bilan farq qiladi.

REFERENCES:

1. Achilov, O. R. (2018). COMPARATIVE ANALYSIS OF FOREGROUNDING IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES. *Web of Scholar*, 5(4), 23-27.
2. Achilov, O. R. (2017). IMPROVING STUDENTS'CRITICAL THINKING THROUGH CREATIVE WRITING TASKS. In *International Scientific and Practical Conference World science* (Vol. 4, No. 4, pp. 19-23). ROST.
3. Oybek Rustamovich Achilov (2022). COMPARATIVE STUDYING MODEL OF FOREGROUNDING IN UZBEK AND ENGLISH LITERARY TEXT. *Academic research in educational sciences*, 3 (10), 714-718.
- 4.Orifjonava, L. T. K., Turganbayeva, S. T. K., & Achilov, O. R. (2022). THE MAIN NOTION OF FOREGROUNDING AND IT'S INTERPRETATION. *Academic research in educational sciences*, 3(10), 548-551.
5. Muxiddinov, O. N. U., Nabiev, S. M. U., & Achilov, O. R. (2022). CONVERGENCE OF STYLISTIC DEVICES IS ONE OF THE EXPRESSIVE MEANS OF FOREGROUNDING. *Academic research in educational sciences*, 3(10), 568-571.

6. Tohirov, G. T. U., Xudoyberdiyev, S. I. O., & Achilov, O. R. (2022). THE BASIC TYPES OF FOREGROUNDING AND ITS FUNCTIONS. *Academic research in educational sciences*, 3(10), 557-561.

7. Tayjanov, A. S. O., & Shamuratov, S. D. O. (2022). EVALUATING CHARACTERISTIC FUNCTION OF CONVERGENCE IN LITERARY TEXT. *Academic research in educational sciences*, 3(10), 577-581.

8. Samandarov, S. U. O., Ortiqov, M. I. O., & Achilov, O. R. (2022). FOREGROUNDING AS A LITERARY DEVICE. *Academic research in educational sciences*, 3(10), 538-541.

9. Khakimnazarov, A. K. U., Namozov, A. O. U., & Achilov, O. R. (2022). COUPLING AS A STYLISTIC DEVICE IN UZBEK AND IN ENGLISH POEM. *Academic research in educational sciences*, 3(10), 587-590

Achilov, O. R. (2018). COMPARATIVE ANALYSIS OF FOREGROUNDING IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES. *Web of Scholar*, 5(4), 23-27.

10. Химматов, А., Мансуров, А. Р. У., & Ачилов, О. Р. (2022). ИСТОЧНИКИ И МЕТОДЫ ОБОГАЩЕНИЯ НАУЧНО-ТЕХНИЧЕСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ. *Academic research in educational sciences*, 3(Special Issue 2), 43-46.

11. Tohirova, J., Sagidullayeva, M., & Rustamovich, A. O. (2022). VATAN SEVGISI-ЙМОН BELGISI. *Academic research in educational sciences*, 3(Special Issue 2), 132-136.

12. Жаксыбаева, Б. М. К., Алиева, Г. Т. К., & Ачилов, О. Р. (2022). ТАРЖИМА СОХАСИГА ХОС БЎЛГАН МУАММОЛАР ВА УЛАРНИНГ ДОЛЗАРБЛИГИ. *Academic research in educational sciences*, 3(Special Issue 2), 53-61.

13. Achilov, O. (2023). O.MUXTORNING "KO'ZGUDAGI ODAM" VA O. WAYLDNING "DORIAN GREYNING PORTRETI" ASARLARI QIYOSIY TAHLILI VA ILGARI SURISH VOSTILARINING ASARDA AKS ETISHI, O'XSHASHLIK VA FARQLI JIHATLARI. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 5(5). извлечено от <https://fll.jdpu.uz/index.php/fll/article/view/7982>

14. Achilov, O. (2023). FOREGROUNDING AND INTERPRETATION. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 5(5). извлечено от <https://fll.jdpu.uz/index.php/fll/article/view/7984>

15. Achilov, O. (2023). BADIY MATNLARNI TARJIMA QILISH JARAYONIDA YUZAGA KELADIGAN TRANSFORMATSIYA VA ULARNING QIYOSIY TAHLILI. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 5(5). извлечено от <https://phys-tech.jdpu.uz/index.php/fll/article/view/7978>

16. Achilov, O. (2023). ILGARI SURISH - LISONIY HODISA SIFATIDA. Журнал иностранных языков и лингвистики, 5(5). извлечено от <https://phys-tech.jdpu.uz/index.php/fll/article/view/7986>

17. Achilov, O. (2023). ILGARI SURISH VOSITALARINING UMUMIY VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI, KOGNITIV-SEMANTIK ASPEKTI. Журнал иностранных языков и лингвистики, 5(5). извлечено от <https://fll.jdpu.uz/index.php/fll/article/view/7980>

18. Achilov, O. (2023). TARJIMA JARAYONIDAGI O'ZGARISHLAR VA ULARNING TURLARI. Журнал иностранных языков и лингвистики, 5(5). извлечено от <https://phys-tech.jdpu.uz/index.php/fll/article/view/7977>

19. Achilov, O. (2023). ANATOMY OF LANGUAGE AND THEORETICAL ASSUMPTIONS OF COGNITIVE SCIENCE, COMPARATIVE ANALYZES. Журнал иностранных языков и лингвистики, 5(5). извлечено от <https://fll.jdpu.uz/index.php/fll/article/view/7983>